



SCIENTIFIC JOURNAL OF RESEARCH IN MEDICINE (SJRM)

Article available online : <https://savanticjournals.uz> Volume 1 Issue 1 July 2022

THE CURE OF DISEASES GIVEN BY NATURE IS IN NATURE

Nargizaxon Baxtiyorjon qizi Atakulova

Andijan State University, faculty of natural sciences, chemistry department teacher

Toychieva Diyorakhon Isomiddin qizi

4th year student of chemical education of Andijan State University, Faculty of
Natural Sciences

Abstract: The article presents the cure of diseases given by nature

Key words: nature, diseases, healing.

Introduction

Tabiat va inson bir biriga chambarchas bog'liq. Tabiat-odamning paydo bo'lgunicha ham, odam ishtiroki bilan ham mavjud borliq. Umuman bu dunyo, odam, koinot, mikromakromegadunyolar, jonsiz va jonli borliq. Tabiblar kasalliklarning taxminan 70foiziga davo gilyohlarda, qolgan 30 foizi mineral toshlarda deb aytishadi. Ona tabiatning ajralmas qismi bo'lgan yo'liqadigan kasalliklarga davo atrofimizni o'rab turgan borliqda mujassam. Faqat uni ilg'ab, anglab o'z o'rnida foydalanish kerak buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino nafaqat qadim an'analarni davom ettirdi, balki davolashning yangi usullarini yaratib, tibbiyot ilmiga asos soldi. Ayniqsa, dunyo xalqlarining sevimli asariga aylangan "Tib qonunlari" atalmish nodir kitobda yozib qoldirilgan ma'lumotlar o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan aksincha, qadr-qimmatini yanada oshgan. Ulardan yanada kengroq foydalanish hayotiy zaruratdir.

Xalq tabobati, uning o'ziga xos an'analari aholi salomatligini ta'minlash tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish, xususan surunkali kasalliklar profilaktikasi, ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik borasida amalda ko' sinovlardan o'tgan. Yurtimizda xalq tabobati rivojiga yuksak darajada e'tibor qaratilayotganining boisi ham shunda. Har qaysi soha bo'lmasin vaqt o'tishi bilan



SCIENTIFIC JOURNAL OF RESEARCH IN MEDICINE (SJRM)

Article available online : <https://savanticjournals.uz> Volume 1 Issue 1 July 2022

mustahkam ilmiy asos va zamonaviy ilmga extiyoj sezganidek, xalq tabobati ham sog'liqni saqlash tizimiga izchil integratsiyalash, o'zaro uyg'unlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni hayotning o'zi taqozo qilayotgan edi.

Yurtimizda Respublika xalq tabobati ilmiy- amaliy markazi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etilmoqda. O'zbek xalq tabobatining tarixiy an'analari va o'ziga xos merosidan foydalangan holda, kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo'yish va davolash, shuningdek, boshqa tibbiy xizmatlar ko'rsatishning samaradorligini tahlil qilish va o'rganish uning asosiy vazifasi etib belgilanmoqda.

Ilm-fan taraqqiy etgan hozirgi davrimizda tibbiyot rivoji ham tezlashib ketdi. Ammo kimyoviy preparatlar kasalliklarni davolash uchun yagona vosita emas. Bu usulda tayyorlangan dori- darmonlardan ko'ra, shifobaxsh tabiiy giyoh va damlamalar asosida davolashning foydasi yuqori ekanligi butun dunyoda tan olinmoqda. Aniqrog'i, xalq tabobati xavfsizlik va samaradorlik jihatdan amalda o'zini oqlamoqda. Shu bois unga murojaat qiluvchilar tobora ortib bormoqda.

Bugun yurtimizda xalq tabobatini zamonaviy sog'liqni saqlash tizimiga izchil integratsiyalash borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar qadim davolash sirlaridan voqif bo'lish, bizga ma'lum bo'lmagan dorivor o'simliklarni aniqlash, ulardan aholi salomatligi yo'lida samarali, ezgu maqsadga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatlidir. Bugungi kunda dorivor o'simliklarning 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan. Jumladan, 70 turi farmatsevtika sanoatida faol qo'llanilmoqda. Olimlarimiz tomonidan olib borilayotdan izlanishlar dorivor o'simliklar bilan birga, dehqon va bog'bonlarning orzusidagi yangi navlarni yaratishga manba bo'ladigan madaniy o'simliklarning yovvoyi turlari borligidan dalolat bermoqda. Negaki, yurtimiz ko'pgina ekinlarning vatani hisoblanadi.

Masalan, kundalik turmushimizda eng ko'p ishlatiladigan piyozning kelib chiqish vatani tarixi mamlakatimiz hududiga bog'liqligini ko'pchilik bilmasa kerar Bu yerdan keyinchalik qadimgi Misr , Gretsiya, Rim va Yer yuzining boshqa joylariga tarqalgan. Hududimizda piyozning 200 ga yaqin manzarali, xushbo'y, dorivor va ozuqabop navlari o'sadi. Olimlarning xulosalariga ko'ra, yurtimiz aholisi azaldan iste'mol qilib kelayotgan Pskom piyozi madaniy navlarga eng yaqini hisoblanar ekan. Mamlakatimizda sgu singari 70 ga yaqin madaniy o'simliklarning yovvoyi turlari mavjud. Shulardan piyoz, olma, bodom, yong'oq, arpa, xandon pista va boshqa o'simliklar biologiyasi atroflicha o'rganilmoqda. Natijada yong'oq navlari paydo bo'lgan joy O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston ekanligi o'z isbotini topdi.

Bugungi kunda yong'oqlarning yovvoyi turlari Qirg'iziston va Tojikistonda ham uchrasada, ularning eng kata maydonlari O'zbekistonda saqlanib qolgan. Umumiy maydoni 1.5 gektarni tashkil etadi. Tabiiy yong'oq va pistazorlarning asosiy qismi Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Shifobaxsh giyohlarning madaniy holda yetishtirilishining afzal jihati shundaki, bu farmatsevtika sanoatiga bir xil yosh va tipdagi xomashyo qabul qilib olish imkoniyatini beradi.



SCIENTIFIC JOURNAL OF RESEARCH IN MEDICINE (SJRM)

Article available online : <https://savanticjournals.uz> Volume 1 Issue 1 July 2022

Natijada qayta ishlash jarayoni yengillashadi. Shuning uchun o'rmon xo'jaligimizda o'lkamiz tabiatiga xos bo'lgan va chet eldan olib kelingan pol-pala, makkai sano, moychechak, tirnoqgul, eman, jag'-jag' kabi bir qancha o'simliklar madaniylashtirilib, o'stirilmoqda.

O'zbekiston florasida shunday noyob, o'ziga xos bo'y taratuvchi, takrori yo'q o'simliklar borki, ulardan mamlakatimizda brend darajasidagi qimmatbaho atirlar atirlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin.

Yurtimizda dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni ko'paytirish barobarida, ulardan foydalanish imkoniyatlari ham kengaytirilmoqda. Darhaqiqat, dorivor o'simliklar asosida tayyorlanadigan ichimlik damlamalar "mayin" ta'siri, tez va oson tayyorlash imkoniyatlari mavjudligi, alohida murakkab texnologik uskunalar talab etilmasligi, arzonligi, asosiysi samaradorligi yuqoriligi bilan qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson va tabiat: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. A. To'xtayev, E. Turdiqulov, M. Rasulov, A. Nig'matov va boshq. — T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.-112 b.
2. A. Sattorov. Dard borki, darmon ham bor. 1-3 kitoblar. Adabiyot uchqunlari, T., 2016.
3. Nabiye M.N., Shalne V., Ibrohimov A. Shifobaxsh ne'matlar. 2-nashri.—T.: "Mexnat", 1989.
4. <http://geografiya.uz/ekologiya/80-tabiat-va-insonning-ozaro-tasiri.html>